

**“ERTAK TERAPIYA”SINI SENSOR ALALIYA TASHXISI BO’LGAN
BOLALARDA FONEMADIK IDROKINI RIVOJLANТИRISHDA
QO’LLANILISHI**

Isayeva Mushtariy Alisher qizi

Alfraganus Universiteti Defektaligiya yo’nalishi talabasi

Karimova Zulfiya Abdurahmonovna

Alfraganus Universiteti Pedagogika va Psixologiya kafedrasi o’qtuvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada sensor alaliya tashxisi bo’lgan bolalarning fonematik idrodikini rivojlanishida “Ertak terapiya”sidan foydalilanishi haqida fikr yuritilgan shuningdek, “Ertak terapiya”sining afzallikkari haqida ma’lumotlar berilgan.

Kalit so’zlar: Korreksiya, alaliya, fizioterapiya, lazeroterapiya, magnitoterapiya, elektroforez, kompleks, terapiya, vizual, psixolog, fonematim idrok, pedagog, kompleks, logoped, terapiya.

Аннотация: В данной статье рассматривается применение сказочной терапии для развития фонематического восприятия у детей с диагнозом сенсорная алалия. Также приводятся аргументы в пользу эффективности сказочной терапии в данном случае.

Ключевые слова: Коррекция, алалия, физиотерапия, лазеротерапия, магнитотерапия, электрофорез, комплексная, терапия, визуальное, психолог, фонематическое восприятие, педагог, комплекс, логопед, терапия.

Abstract: This article examines the application of fairy tale therapy in developing phonemic awareness in children diagnosed with sensory aphasia. Arguments in favor of the effectiveness of fairy tale therapy in this case are also presented.

Key words: Correxia, alalia, physiotherapy, laser therapy, magnetic therapy, electrophoresis, complex, therapy, visual, psychologist, phonemic perception, teacher, complex, speech therapist, therapy.

Kirish:

Hozirgi kunda nutq nuqsonining rivojlanishi va bolalarda muloqot malakalarining yetarlicha rivojlanmaganligi dolzarb muammolardan biri sanaladi, Bunday nutq nuqsonlaridan biri alaliyadir. “Alaliya” atamasi (grekcha” a” – yo’q, lotincha” lalio” - nutq) nutqning yo’qligi degan ma’noni anglatadi, nutqsizlik holati deb kuzatiladi. Alaliyada bosh miyaning ayrim po’stloq sohalarida nerv tolalarini shakllanmaganligi kuzatiladi. Alaliyaning 2 xil turi mavjud bo’lib ular motor va sensor turlarga ajratilinadi. Motor alaliyada bola kam va noto‘g‘ri gapiradi, unga qaratilgan nutqiy muloqotni tushunadi. Ayrim tovushlarni talaffuz qilgani bilan tovush

birikmalarini o'zlashtirmaydi, butun so'z o'rniga uning bir qismini aytadi (masalan, dadani "da" deydi).

V.K.Orfinskaya, N.N. Traugottlar takidlashlaricha , sensor alaliyada fonemalarni farqlash ya'ni tovushlarni bolaga eshittirib, talaffuz ettirish, fonematik tahlil ustida ish olib borish (masalan so'zlarda tovushlar ketma-ketligini farqlashga o'rgatish ya'ni so'zda qaysi tovush qanday o'rinda ishlatalmoqda so'z boshida, so'z o'rtasida va so'z oxirida). So'z tarkibining morfologik tahlilida qiyinchiliklar kuzatiladi va aynan shu bois nuqsonning o'ziga xosligini aks etadi. Sensor alaliya tashxisli bolalarning fonematik idrokini rivojlantirishda nonutqiy tovushlarga, nutqiy tovushlarga nisbatan qiziqish uyg'otish , ularga taqlid qilishga ehtiyoj, xohish va imkoniyatlarini rivojlantirish , nutqiy va nutqiy bo'limgan tovushlarni farqlashni o'rgatib borish lozim.

Sensor alaliyada bola atrofdagilarning nutqini tushunishda qiyinchiliklarga uchraydi yoki umuman tushunmaydi. Bunda bola nutqining buzilishi, ulg'aygani sari ruhiy taraqqiyoti ham o'z tengdoshlaridan ortda qolishiga sabab bo'ladi.

Sensor alaliya tashxisi bo'lgan bolalar nutqini korreksiyalashda kompleks tizimli ishlar olib boriladi.

Bular:

- tibbiy dori – darmonlar yordamida davolash
- fizioterapiya (lazeroterapiya, magnitoterapiya, elektroforez, suv bilan davolash
- logopedik korreksiya ishlari
- psixologik-pedagogik yondashuv.

Sensor alaliya qancha erta tashxislanib korreksion ishlar qancha erta boshlansa ulardagi kamchiliklarni korreksiyalash jaroyonida kerakli natijalarga erishish shuncha erta bo'ladi. Bu kamchiliklarni korreksiyalashda kompleks yondashish maqsadga muvofiqdir . Logoped olib boradigan pedagogik tuzatish ishlarining asosiy vazifalaridan biri sensor alaliya tashxisli bolalarning fonematik idrokidagi nuqsonlarni va ruhiy noto'kis jihatlarini korreksiyalashni o'z ichiga oladi. Logoped o'z mahorati va tajribasi bilan sensor alaliya tashxisli bolalarga ta'sir etishda qo'llay oladigan zarur mutaxassislarning nevropatolog , psixolog, hamkorligidagi ishlarni tashkil etadi.Ya'ni sensor alaliya tashxisi bo'lgan bolalar bilan logoped nutq tarkibining ongli tahlilini tarbiyalash, fonematik idrokini rivojlantirish , nutq tarkibini tushunishga e'tiborini qaratadi.

Ertak Terapiyani sensor alaliyada qo'llanilishi:

1. "Ertak tanlash va tinglash"
 - Sensor alalik bolalar uchun oddiy va tushunarli ertaklar tanlanadi.

- Bolalar ertakni tinglaganida, ertak qahramonlarining harakatlari va vaziyatlari bilan tanishadilar.

2. "Vizual yordamlar"

- Ertak bilan birga rasmlar va illyustratsiyalar qo'llaniladi. Bu bolalarga ertakdagi voqealarni yaxshiroq tushunishga yordam beradi.

- Rasm va illyustratsiyalar orqali bolalar ertak qahramonlarini va ularning harakatlarini ko'radilar va ular haqida gapirishga harakat qiladilar.

3. "Rollarni o'ynash"

- Bolalar ertak qahramonlarining ro'llarini o'ynab ko'radilar, ularga ovoz chiqarib taqlid qiladilar, ularning harakatlarini takrorlaydilar.

- Bu usul bolalarga nutq qobiliyatlarini mustahkamlash va muloqot qilish ko'nikmalarini rivojlantirishda muhim ahamyatga ega.

4. "Ertakni qayta so'zlash"

- Bolalar ertakni qayta so'zlab berishga harakat qiladilar. Bu usul orqali ular so'z boyligini oshirish va nutqni tuzish qobiliyatlarini rivojlantiradilar.

- Qayta so'zlash bolalar uchun juda muhimdir, chunki bu ular uchun eshitganlarini tushunish va ifoda etish imkoniyatini yaratadi.

5. "Savollar va javoblar"

- Ertakni tinglagandan keyin, bolalarga ertak haqida savollar beriladi va ular bu savollarga javob berishga harakat qiladilar.

Savollar va javoblar bolalarga o'z fikrlarini ifoda etishga va mantiqiy bog'liqliklarni tushunishga yordam beradi. Ertak Terapiyasining foydali taraflaridan biri nutq rivojlanishiga yordam beradi.

Bolalar kommunikativ ko'nikmalarni oshiradilar. Bolalar his-tuyg'ularini ifoda etish va boshqarish ko'nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi. Tasavvur va yaratuvchanlik qobiliyatini ham rivojlantiradi.



“Bo’g’irsoq ertagi”. Ertak she’riy janrda bo’lib, ertaktagi so’zlarni kuylab berish davomida bolalarda kuchli qiziqish uyg’onadi. Etrak davomidagi har bir hayvonning ovozi quyonning past va titroq ovozi, ayiqning yo’g’on ovozi , bo’rining baland ovozi, tulkinining mayin va ayyorona ohangi o’rgatilinadi va ertakda qanday hayvonlar ishtirok etgani so’raladi. Hayvonlarning ovoziga taqlid qilish o’rgatiladi.

Xulosa:

Xulosa qilib shuni aytsak bo’ladiki, sensor alaliya tashxisi bo’lgan bolalar fonematik idrokini rivojlantirishda ”Ertak terapiya”sining ahamiyati juda katta bo’lib, bolalarni ertaklar yordamida ruhiyatini, fikrlashini, tasavvurini, fonematik idrokini rivojlantrishga o’z ta’sirini ko’rsatadi. Ertaklar bolalarga o’zlarini himoya qilish, ayyorlikdan saqlanish va o’zlariga ishonchni tarbiyalaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

- 1.Ayupova M.Y.Logopediya.Darslik.T:O’zbekiston faylasuflari milliy jamiyai, 2007.
- 2.Logopediya L.S. Volkova, S.I.Shaxovskaya .Izd-vo “Vlados”- M., 2002.
- 3.Логопедия: учебник для студентов дефектологических факультетов педагогических высших учебных заведений. Под ред. Л.С. Волковой. 5-е изд. М.: Гуманитарный изд. центр «ВЛАДОС», 2009. 703 с. [Speech therapy: a course book for students of defectological faculties of pedagogical institutions. Ed. by L.S. Volkova. 5th edn. Moscow: Humanitarian publishing center “VLADOS”, 2009. 703 p. (In Russ.)].
4. Мастюкова Е.М. Онтогенетический подход к структуре дефекта при моторной алалии. Дефектология 1981;6:13. [Mastyukova E.M. Ontogenetic approach to the defect structure in motor alalia. Defektologiya = Defectology 1981;6:13. (In Russ.)].
5. Горбачевская Н.Л., Якупова Л.П. Особенности формирования ЭЭГ у детей с психической патологией. В кн.: Аутизм в детстве. М.: Медицина, 1999. С. 160-189. [Gorbachevskaya N.L., Yakupova L.P. Specific features of EEG in children with mental disorders. In: Autism in childhood. Moscow: Meditsina, 1999. Pp. 160-189. (In Russ.)].
- 6.<https://wos.academiascience.org/index.php/wos/article/download/707/653/1350>
- 7.<https://journal.jdpu.uz/index.php/ppmedu/article/view/4569>